



ОУБЕК “БОЛАЛИК” ҚИССА ВА НIKOYALAR

Xo'jamurotova Mohinur

Nizmoniy nomidagi Toshkent davlat pedogokiga universiteti talabasi

Abdujabbarova Feruza Abdunazarovna

Nizmoniy nomidagi Toshkent davlat pedogokiga universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oybekning “Bolalik” asari tahlil qilingan. Oybekning bolaligi ham barcha mehnatkash xalq bolalari kabi kechadi. U yoshlikdan uy-ro`zg`orga qarashish, guzardan narsa olib kelish, suv tashish, o`tin yorish, qor kurash kabi yumushlarni bajarishi haqida, Oybekning bolalar va o`smirlarga bag`ishlangan she`riy asarlarida bugungi qaynoq hayot, ilm, hunar va mehnatga bo`lgan muhabbat, vatanparvarlik, jamoatchilik, ijtimoiy burchni anglash kabi xususiyatlar aks etganligi haqida so`z boradi.

Kirish. Muso Toshmuhammad o`g`li Oybek adabiyotimizda o`chmas iz qoldirgan adiblarimizdan hisoblanadi. Uning turli mavzulardagi ko`plab asarlari nashr etilgan va mashhur bo`lgan. “Bolalik” asari avtobiografik asar bo`lib, unda yozuvchi o`z ko`rgan-kechirganlarini, hayotida sodir bo`lgan voqealarini, bolalikdagi eng unutilmas damlarini bayon qiladi.

“1951-yilda Oybek og`ir xastalikka chalindi. Gapirolmay qolgani, harakatlari cheklangani, xotirasi susayganiga qaramay, u umrining keyingi yillarida “Quyosh qoraymas”, “Ulug` yo`l” romanlarini, “Nur qidirib”, “Bola Alisher”, “Bolalik” qissalarini yaratdi. Talay she`r va dostonlar bitdi”.

“Bolalik” kabi bir qator asarlari sog`ligi yaxshi bo`lmagan vaqtlarda yozilgan. Shunday bo`lsa-da Oybek ijoddan, izlanishdan to`xtamadi. Sog`ligi sababli yozolmay qoladi va asarlarini oila a`zolariga aytib turib yozdiradi. “Bolalik” qissasi ham shunday qiyin davrda dunyoga keldi. Bu haqida Abdulla Qahhor shunday degan:

“Oybek 400 yilga teng keladigan 40 yillik ijodiy faoliyatining bir lahzasisni ham samarasiz o`tkazgani yo`q”. Oybek umrining oxiriga qadar ijoddan to`xtamadi.

Asar bosh qahramoni -Musavoy. Uning bolaligi A`zam, Turg`un kabi do`stlari bilan o`tadi. Oybek bo`zchi oilasida tug`iladi. Qissada yozilishicha ustoz –shogirdlar yig`ilib o`tirishib bo`z to`qishgan. “Ularning qo`llari juda chaqqon, birpasda bigizni shartta-shartta tiqib, ipni u yoq bu yoqqa qulochlab, chok tikadilar”, -deb yozadi muallif.



Jon-jon Latifa
Gul maydon Latifa
Shoxida o‘ynang, bargida sayrang
Jon latifa”

Bu jumla ham shunday davralarda kuylangan. Odamlar zerikmasliklari uchun turli qo‘shiqlar xirgoyi qilishgan, latifalar aytishgan. Shuningdek, qissada xalq og‘zaki ijodi namunalari ham foydalanilgan. Yuqoridagi parcha hamfolklore namunasi hisoblanadi.

“G‘unchasin gul bulbulin qatlina paykon aylamish,
Bulbul ochilgan guli yuzini qalqon aylamish”

Yuqoridagi bayt Fuzuliy ijodidan olingan. Muso domlaga savod chiqarish uchun boradi. Bu davrda hamma bolalar ham o‘qitilmas edi. Musoning otasi-Toshmuhammad uni o‘qitishni xohlaydi va domlaga shogirdlikka beradi. Bu vaqtda Musoning opasi-Karomat ham savodli edi. Yuqoridagi g‘azal kabi asarda ko‘plab baytlar keltiriladi. Bular Musoni bolalikdan adabiyotga qiziqqanligini bildiradi.

Musoni otasi Yangibozorga chaqiradi. Muso A‘zam bilan birga boradigan bo‘ladi. A‘zamning ham otasi Yangibozorda savdogarlik qilardi. Qissada Yangibozordagi davrlari, sarguzashtlari va yo‘ldagi voqealar ham tashvirlanadi. Ularni tongda aravakash olib ketadi. Yo‘lda turli xil qo‘shiqlar aytib ketishadi:

Asosiy qisim. “Bolalikda ko‘rganlarim, eshitganlarim hammasi esimda. Ayrim hodisalar, xotiralar hozir ham quyoshdan bir tomchi kabi yalt etib ketadi xayolimda. Umuman olganda bizning bolalik hayotimiz bo‘sh, bema‘ni zeriktirgich, qayg‘u-alamga to‘la bir hayot bo‘lgan”. Oybek bu qissasida qayg‘uli kunlarini ham keltirib o‘tadi. Musovoy qaysar va aytganini qildiradigan bola bo‘ladi. U bobosining erkasi bo‘lib ulg‘ayadi. Bobosi qancha avaylasa ham, ko‘ngliga qarasa ham baribir otasining o‘rni bilinib turgan. Otasi oilasidan uzoqda bo‘ladi va oylar davomida uch-to‘rt kunga kelib ketardi. Shuningdek, qissada eng qayg‘uli kunlaridan biri bo‘lgan-bobosining vafoti ham tasvirlanadi. Bu voqea ham bolalik yillarida sodir bo‘lgan edi. Domlada savod chiqaradigan vaqtlari xalqda urush boshlanadi. Yigitlarni qullikka olib ketmoqchi bo‘lishadi. Xalq turmushdan noliydi, boylar va zolim amaldorlardan zorlanadilar. O‘sha vaqtda oddiyb aholi zolim ellikboshilar haqida turli qo‘shiqlar ham to‘qigan.

“Saydahmad toming baland
Tomingdan noming baland
Yigitlarga qo‘l qo‘ygan
Padaringga ming la‘nat



Shu kabi bir qancha qo'shiqlar to'qiladi. Bular xalqning, kambag'allarning qiynalganligini, yigitlarni qul qilib olib ketganligini bildiradi. Oybek va asarlari haqida zamondoshlari ham iliq fikrlar bildirishadi. "Bolalik" qissasida yozuvchining hayotidagi baxtli, quvnoq kunlari bilan birgalikda qiyinchilikda o'tgan kunlari haqida ham bilishimiz mumkin. "Xotira –hujjat degan so'z. Biroq bu hujjat tagiga idora hokimi emas, balki qalb atalmish kotib imzo chekadi". Oybek doimo boshqalarga yordam beradigan oliyjanob siymo edi. U haqida Saida Zunnunova shunday deydi: "Oybek she'rlarimni o'qidi, maslahatlar berdi. Tirikchiligimni surishtirdi. Iliq gaplar aytib, dalda berdi. Matbuot organlari rahbarlariga mening she'rlarimga e'tibor berishlarini tayinladi". Bu vaqtda Oybek Yozuvchilar uyushmasida rais edi. Oybekni tanimagan, bilmagan, o'qimagan kishi kam. Ko'plab yozuvchi va shoirlar uning ijodidan ruhlaniib, adabiyotga kirib kelishdi.

Yozuvchi Oybekning bolaligi ham barcha mehnatkash xalq bolalari kabi kechadi. U yoshlikdan uy-ro'zg'orga qarashish, guzardan narsa olib kelish, suv tashish, o'tin yorish, qor kurash kabi yumushlarni bajaradi. Barcha bolalar kabi bahor vaqtlarida tomma-tom oshib, varrak uchirar, dovuchcha qoqar, qish bo'lsa oshiq o'ynar, xo'roz, tuxum va it urishtirishlarda qatnashar, yoz kunlari onasining pinjida qarindosh-urug'larining uylariga «mehmon»ga borar, hayit, sayil va boshqa milliy bayram kezarida esa o'zida yo'q sevinib, dor o'yini, xalq qiziqchiliklarini, ko'ngil ochar tomoshalarni ko'rishga muyassar bo'lar edi. Keyinchalik «Shaharcha bolalariga», «Shoirning bolaligi» she'rlarida shu manzaralar o'z aksini topadi. Oybekning bolalar va o'smirlarga bag'ishlangan she'riy asarlarida bugungi qaynoq hayot, ilm, hunar va mehnatga bo'lgan muhabbat, vatanparvarlik, jamoatchilik, ijtimoiy burchni anglash kabi xususiyatlar aks etgan. Bu fazilatlar o'sha davrda Oybek asarlarining yetakchi mavzuiga aylanadi. Shoir g'oyaviy-badiiy kuchli she'rlar bilan birga, bolalar va o'smirlar hayotini tasvirlovchi hikoyalar ham yozdi. 1981 yilda adibning «Globus» nomli to'plami bosilib chiqdi. Bunda Oybekning shu vaqtgacha e'lon qilinmagan «Gulnor opa» (1930 yil), «Fanorchi ota» (1930 yil), «Singan umid» (1930 yil), «Tillatopar» (1930 yil) hikoyalari ham chop etilgan. Oybek kichik yoshdagi maktab bolalari uchun Pokiston bolalari hayotidan «Qonli barmoqlar» (1962 yil) hikoyasini yozdi. Hikoyada Pokistonda tinchlik uchun kurashuvchilardan qanday qasos olinayotganligi, ularning bolalari ko'chalarga chiqarib tashlanayotganligi, tilanchilikka va malaylikka mahkum etilayotganligi hikoya qilinadi. Yozuvchi buni asar qahramoni to'qqiz yoshli Alining sarguzashtiari orqali tasvirlaydi. Oybekning shaxsiy hayotinigina emas, balki bir-biriga munosib



ikki ulug' siymoning sevgi va vafo dostoni - "Oybegim mening" asarini o'qir ekansiz, ular boshidan o'tkazgan qiynchiliklar, ularga qilingan tusxmatlardan lol qolasiz kitob sizni shunchalik qiziqtirob qo'yadiki, go'yo bu voqealar o'zingiz bilan yuz berayotganday tuyiladi. Ijodkor yaratgan asl badiiy manzarada doimo fikr bilan birgalikda tuyg'u, hissiyot ham bo'ladi. Yozuvchi hamisha yo nimanidir yoqlaydi, yoki inkor qiladi. Betaraf badiiy ijod bo'lishi mumkin emas. Chunki inson tafakkuri va ruhiyatida betaraflik tugagandan so'nggina chinakam badiiy asar yaratiladigan holat paydo bo'ladi. Adibning tuyg'ulari nechog'lik kuchli, nigohi qanchalar o'tkir, tili qanchalik boy bo'lsa, o'quvchi uning asariga ta'siriga shunchalik qattiq beriladi. Yaratilgan badiiy matnning qanchalik hissiy, ta'sirchan bo'lishi uning timsoliyligi - obrazlilik darajasiga bog'liq. Shunday qilib, badiiy adabiyotning ilmiy adabiyotdan asosiy hal qiluvchi farqi uning obrazlilikidadir. Oybek hikoyada Alilarning yashash sharoitini va qanday kun kechirishini quyidagicha tasvirlaydi: «Gorishov Lohurning baridagi bir daha. Lohur —qo`shiqlar, gullar diyori. Gorishov esa dahshat! Ali bu xaroba —vayronalar ichida yuguradi. Ko`cha, yo`lkadeydigan narsa yo`q, tutash xaroba kulbalar. Shunday xaroba kulbalarning birisida Ali bilan onasi, otasi qamaligandan so`nghaydalib, ko`chaga tashlangan edi». Pokiston shaharlarining ko`cha-ko`ylarida to`da-to`da tilanchi bolalar yuradi. Gadoylar odatda «baxshish» deyilsa, o`zlarini tomdan tashlab yuborishga tayyor ekanligi hikoyada bo`rtib turadi. Ali bir parcha non qidirib, besh-olti kundan buyon rastalarni kezib yurganda gulobchi do`kondor uni chaqirib «jahl aralash dedi: —Mana bu yashiklarni bo`shat!» Buning evaziga esa haq to`lashga va`da qiladi. Ali: «rostdanmi?», —deb so`radi va do`kondorning «ha» degan tovushini eshitgach, bola uzun xo`rsindi, jilmaydi. Kir, kalta ko`ylagining yenglarini shimarib, ishga tushdi». Ali yashiklardagi siniq gulob shishalarini tashiydi: «Siniq, cheti uchgan shishalar va berahm quyoshning issig`i xunob qilar, kichik barmoqlari tilingan, qo`llari qon. Ammo och, tentirab yurishdan charchagan bola bu xizmatdan vaqti xush edi. Isqirt, juldur, cho`pday oriq bolalar bolaning qonagan qo`llariga tikildilar. Bolalar Aliga ko`mak bermoqchi bo`lganlarida u «rahmat», deb javob berdi. Ali och-nahor, barmoqlarini shisha siniqlari kesib achitishiga, bir parcha non topishning nihoyatda azob-uqubatlari va mashaqqatlariga qaramay, do`kondor gulobchining og`ir ishini bajardi. Do`kondor bir qutini ochib, yupqa «chapati» nonni uloqtirdi. Ali ilib oldi, quvonib dedi: •Darrov borib, ayamga beraman, u kasal!

•Aya, men keldim, non topib keldim. Turing, non yeng, non Kampir onaning yuzini ochdi:

•O`tdi olamdan!



Dard bilan, yo`qchilik bilan, ochlik bilan, g`am bilan hamisha kurashgan bu g`arib ayolning yuzida baxtsiz hayotning eng so`nggi nafasida o`lim bilan kurash dahshati ko`rinar edi». Bu hayotiy parcha faqat pokistonlik Aining hayoti uchun xos hodisa bo`libgina qolmay, balki kambag`al mehnatkash bolalarining hayoti uchun ham tipik hol edi. Kitobxon Alining sarguzashtlari bilan tanishar ekan, unda oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum etilgan bolaning ayanchli taqdiri orqali yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg`ulari shakllanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytsak adibning «Bolalik» qissasi avtobiografik xarakterga ega bo`lib, uning markazida yosh Musaning sarguzashtlari yotadi. Musa obrazining hayotdagi asosi adib Oybekning o`zidir. Asarda Musavoyning yetti yoshgacha bo`lgan davrdagi xarakteri sho`xlik, tegajoqlik, tinibtinchimaslik va o`yinqaroqlikdan tashqari, ochiq ko`ngil, dangalchi o`tkir zehnliligi Oybekona tasvirga ega. Oybek o`sha davr tashvishlari bolalar hayoti va taqdirida ham ma`lum darajada aks etganligini mahorat bilan tasvirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q. Yo`ldoshev, V. Qodirov, J. Yo`ldoshbekov “Adabiyot” Toshkent-2019
2. Oybek “Bolalik” qissasi sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati toshkent — 2008
3. “Oybek zamondoshlari xotirasida” G`.G`ulom nomidagi nashriyot Toshkent – 2015
4. [www. ziyo.net](http://www.ziyo.net)